



FARG‘ONA VILOYATI DANG‘ARA TUMANI HOKIMINING QARORI

2021 - yil 30 - dekabr

201-11-155-Q/21

Dang‘ara tuman hokimligi

Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta’limga jalb etish maqsadida tumandagi har bir ta’lim muassasasiga hudud va mikrohududlar biriktirish to‘g‘risida

Tuman Adliya bo‘limining 2021-yil 2-dekabrdagi “Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta’limga jalb etish maqsadida tumandagi har bir ta’lim muassasasiga hudud va mikrohududlar biriktirish to‘g‘risida”gi 1-16/16-0/130-son taqdimnomasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 5-bob 39-bandi va “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 25-moddalariga muvofiq,

Q A R O R Q I L A M A N

1. Tuman Adliya bo‘limining 2021-yil 2-dekabrdagi “Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta’limga jalb etish maqsadida tumandagi har bir ta’lim muassasasiga hudud va mikrohududlar biriktirish to‘g‘risida”gi 1-16/16-0/130-son taqdimnomasi asos uchun qabul qilinsin.

2. Tuman xalq ta’limi bo‘limi tasarrufidagi har bir ta’lim muassasasiga hudud va mikrohududlar biriktirish jadvali ilovaga muvofiq ma’qullansin.

3. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari Sh.Urinova hamda tuman xalq ta’limi bo‘limi mudiri A.Sodiqov zimmlariga yuklatilsin.

Tuman hokimi



Sh.Tojixakimov

Данғара туман ҳокимининг
2021 йил 30 декабрдаги
201-11-155-Q/21-сон қарорига
1-илова

Tuman Xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi ta'lim muassasalariga hudud va mikrohududlar birlashtirish

JADVALI

T.r.	Ta'lim muassasasi	Birlashtirilayotgan hududlar
1.	1-maktab	Navbahor MFY (Beshkapa, Kamolot, Hilol, Ilg'or, Qo'shchinor, Soybo'yi, Chinor, Dilshod, Abdulla Qodiriy, Ezgulik ko'chasi, Toshkent ko'chasining 2-50-xonadonlari, Amir Temur ko'chasining 80-116-sonli xonadonlari, Uvaysiy MFY, Istiqlol mavzesi, O'zbekiston ko'chasining 1-14-xonadonlari, Amir Temur ko'chasining 38-79-xonadonlari, Do'stlik ko'chasi, Oltiqo'sh MFY ning Uch-uyli qishlog'i.
2.	2-maktab	G'umoyli MFY
3.	3-maktab	"Pishqaron" MFY (Nurli yo'l 45-xonadondan, Soy soxili, Jar boshi, Muqimiy (sport maktabigacha), Nixol, Ziynat ko'chalari, Ahillik ko'chasi) Chodaklik MFY (Eski Chodaklik maxallasi, Tabassum, Zamondosh ko'chasi), To'laboy MFY (G'ishtxona qishlog'i)
4.	4-maktab	Teliming MFY, Qora Ko'rpa MFY (Dilobod, Tong yulduzi, Maorif ko'chalar)
5.	5-maktab	Kichik turk MFY (Kichik turk, Chag'ali, Qora qalpoq), Bog'ish MFY Oq ko'l, Xurmiton ko'chalari)
6.	6-maktab	Katta turk MFY
7.	7-maktab	Doimobod MFY
8.	8-maktab	Bog'ish MFY (Bog'ish qishlog'i), Katta turk MFY (Bino qishlog'i)
9.	9-maktab	Taptiqsaroy MFY
10.	10-maktab	Kapa saroy MFY, Oqjar MFY (Yaltir-2 ko'chasi)
11.	11-maktab	Abdusamad MFY
12.	12-maktab	Naymancha MFY (Jarqishloq, Navro'z), Tangriqul MFY, Raxmatillo MFY
13.	13-maktab	Boy bo'ta MFY

14.	14-maktab	Katta Aravon MFY, Katta Minglar MFY, Kichik Minglar MFY
15.	15-maktab	Qashqar MFY, Targ‘ova MFY,
16.	16-maktab	Qashqar MFY (Qashqar, Chomoch), Boy bo‘ta MFY (Tog‘liq qishlog‘i)
17.	17-maktab	Yangi Zamon MFY, Arziq Tepa MFY, Minglar MFY, Naymancha MFY
18.	18-maktab	Qizilmusht MFY, G‘alaba MFY (Qirqlar qishlog‘i)
19.	19-maktab	Katta Amirabod MFY, G‘alaba MFY
20.	20-maktab	Oqjar MFY
21.	21-maktab	Istiqlol MFY (Quduq va Orol qishloqlari)
22.	22-maktab	Tumor MFY
23.	23-maktab	“Uvaysiy” MFY dagi Toshkent ko‘chasi (Toshkent ko‘chasi 2-50-uygacha 1-maktab hududi hisoblanadi) “Bobur”, “A.Qahhor”, “U.Nosir”, “Furqat”, “8-Mart”, “Muqimiy” (Muqimiy ko‘chasining sport maktabigacha bo‘lgan qismi), “Tinchlik”, “A.Navoiy”, “Shodlik”, “A.Temur” (1-37-xonadonlar), “Ulugbek”, “Orzu”, “Obod” (1-80-xonadonlar) ko‘chalari. Pishqaron MFY dagi “Nurli – yo‘l”(45-xonadongacha), “Bunyodkor”, “Iftixor”, “Chamanzor”, “Bog‘u-bo‘ston”, “Mustaqillik”, “Bobur”, “Furqat” (ko‘p qavatli uylar)
24.	24-maktab	Urganji MFY (Do‘stlik, Nurobod ko‘chalari), Katta Boybucha MFY (Qo‘rg‘oncha, Kichik Qo‘rg‘oncha qishlog‘i)
25.	25-maktab	Katta Ganjiravon MFY, To‘laboy MFY, Kichik Ganjiravon MFY
26.	26-maktab	Soy Shildir MFY (Soy Shildir, Salom qishlog‘i), Sanam MFY (Eski Shildir, Gulboy, Ko‘nchiboy qo‘rg‘oncha qishlog‘i)
27.	27-maktab	Oqtapa MFY, Shopo‘lat MFY
28.	28-maktab	Qiyali Qo‘rg‘oncha MFY, Yashik MFY
29.	29-maktab	Qora Mulla MFY, Bo‘riqum MFY (Mitan qishlog‘i)
30.	30-maktab	Katta Boybucha MFY
31.	31-maktab	Qum-qiyali MFY (Qum-qiyali qishlog‘i), Qiyali MFY (Olti o‘rtoq qishlog‘i)
32.	32-maktab	Urganji MFY (Bog‘bon, Guzarboshi, Xovuzboshi ko‘chasi)
33.	33-maktab	Taypoq MFY

34.	34-maktab	Istiqlol MFY (Xo'ja qishloq), Uymovut MFY (Uymovut, Sho'r qishloq)
35.	35-maktab	Mang'it MFY
36.	36-maktab	Uymovut MFY (Davr qishlog'i), Kichik Turk MFY (Chag'ali qishlog'i)
37.	37-maktab	Bo'riqum MFY
38.	38-maktab	Chinobod MFY, Qora Ko'rpa MFY (Qashqar qishlog'i)
39.	39-maktab	Navbahor MFY (Guliston, Dang'ara, Nodira, Navbahor, Yangi hayot ko'chalari) Oltiqush MFY (So'lim, Charos ko'chalari)
40.	40-maktab	Qaqir MFY (Qaqir qishlog'i, Xo'jamozor qishlog'i)
41.	1-IDUM	Xududsiz
42.	2-IDUM	Xududsiz